XALQ DEPUTATLARI MARG‘ILON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 10-sentabr VI-91-75-11-168-K/24 Marg‘ilon shahar

Marg‘ilon shahrining ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni “Yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer hisobini yuritish hamda kadastr xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-son bayoni hamda mazkur bayonning 20-bandi ijrosini ta’minlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son “Yo‘l xaritasi” tasdiqlangan.

“Yo‘l xaritasi”sining 6 va 7-bandlarida hududiy komissiyalar tomonidan muammoli hududlarda chegara chizig‘ini belgilash bo‘yicha tayyorlangan takliflarni ko‘rib chiqish va qo‘shni hududlar bilan kelishish hamda kelishilgan chegara chizig‘ini tasdiqlash bo‘yicha tegishli Xalq deputatlari Kengashining qarorlarini qabul qilish choralarini ko‘rish topshirig‘i berilgan.

Ma’lumki, Marg‘ilon shahri ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtiruvchi shahar Komissiyasining 2024-yil 8 avgust 03/03-11-sonli bayonnomasi bilan Marg‘ilon shahrining Farg‘ona shahri, Farg‘ona, Qo‘shtepa va Toshloq tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasining kartorafik chizmalari va chegaraning tavsiflari tegishlicha ilovalarga muvofiq tasdiqlangan.

“Yo‘l xaritasi”ning 5-bandi ijrosini bo‘yicha, Kadastr agentligi tomonidan Marg‘ilon shahrining chegara chizig‘i chizmasi va tavsiflari tayyorlanib, Agentlikning 2024-yil 28-martdagi 03/08-2963-son xati bilan Kadastr agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasiga ko‘rib chiqish va kelishish uchun taqdim etilgan.

Respublika aerogodeziya markazi Farg‘ona xududlararo bo‘linmasining 2024-yil 20 iyun 106-son xat bilan xalq deputatlari shahar Kengashiga murojaat qilib, shahar kengashining sessiyasida Marg‘ilon shahrining chegara chizig‘i chizmasi va tavsiflarini ko‘rib chiqilishida amaliy yordam berilishi so‘ralgan.

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasiga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

- O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 28-martdagi 03/08-2963-sonli xati;

-Respublika aerogodeziya markazi Farg‘ona xududlararo bo‘linmasining 2024-yil 20 iyun 106-son xati;

-shahar ishchi komissiyasining 2024-yil 8 avgust 03/03-11-sonli bayonnomasi inobatga olinsin.

2. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat xokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasida “Xalq deputatlari Kengashi, hokim O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq yer munosabatlariga doir boshqa masalalarni hal qilishi”;

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasida xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar (Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari va shaharlari) Kengashlari o‘z vakolatlari doirasida ma’muriy-hududiy tuzilish masalalariga doir qarorlar qabul qilishi belgilanganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

3. Marg‘ilon shahri ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtiruvchi komissiyasining (keyingi o‘rinlarda-Komissiya deb yuritiladi) Marg‘ilon shahrining Farg‘ona shahri, Farg‘ona, Qo‘shtepa va Toshloq tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash to‘g‘risida”gi yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

4. Komissiya bayoni bilan Marg‘ilon shahrining Farg‘ona shahri, Farg‘ona, Qo‘shtepa va Toshloq tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasining kartorafik chizmalari va chegaraning tavsiflari tegishlicha 1-2-ilovalarga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

5. Xalq deputatlari shahar Kengashining tegishli qarori qabul qilinganda hamda ma’muriy-hududiy chegara davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandagina (Ma’muriy hududiy birliklar davlat reyestriga kiritilganda) Marg‘ilon shahrining Farg‘ona shahri, Farg‘ona, Qo‘shtepa va Toshloq tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasi belgilangan deb hisoblansin.

6. Qaror bajarilishini nazorat qilish vazifasi xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyati (O.Axmatshaev) hamda xalq deputatlari shahar Kengashining doimiy komissiyasi raisi (O.Nishonov) zimmasiga yuklansin.

7. Ushbu Kengash qarori rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari viloyat Kengashidan so‘ralsin.

Kengash raisi  SH.Nisbatxonov

Xalq deputatlari Marg‘ilon shahar
Kengashining
2024-yil 10-sentabrdagi
VI-91-75-11-168-K/24 -son qaroriga
1-ilova

M A ‘ L U M O T

№	Shahar nomi	Chegara uzunligi (metr)	Yer maydoni (gektar)
1.	**Marg‘ilon shahar**	**61048,28**	**4768,52**

Xalq deputatlari Marg‘ilon shahar
Kengashining
2024-yil 10-sentabrdagi
VI-91-75-11-168-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Farg'ona viloyati Marg'ilon shaharning
ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining
SXEMASI

